

**METHODS TO ORGANISE CLASS TEACHER'S WORK.****Students of Termez State University:****Eshpo`latov Sunnatullo Erkin o`g`li, Tursunmurodov Sherzod Shoniyoz  
o`g`li, Mardonova Feruza Karimjon qizi.**

**Anotation.** The class teacher is the person responsible for the level of education of the students (along with their parents) in the school and in the general public. Its purpose is to carry out the education of a comprehensively mature, harmoniously-spiritually, mentally, physically developed person, to create sufficient pedagogical conditions for the full demonstration of the abilities of students in the classroom. In this regard, the school, in collaboration with the teaching staff and the student body, develops an approach to the organization of educational work, depending on the specifics of each student.

**Keywords:** primary education, teaching methods, the role of parents in education, neighborhood.

**SINF RAHBARLIGI ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI****Termez davlat Universiteti talabalari:****Eshpo`latov Sunnatullo Erkin o`g`li, Tursunmurodov Sherzod Shoniyoz  
o`g`li, Mardonova Feruza Karimjon qizi.**

**Anotation.** Sinf rahbari maktabda va keng jamoatchilik orasida sinf o`quvchilarining (ota-onalari bilan birgalikda) tarbiyalanganlik darajasiga javobgar shaxs hisoblanadi. Uning maqsadi har tomonlama etuk, barkamol-ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan Shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o`quvchilarining qobiliyatlarini to`liq namoyon etishlari uchun etarli pedagogik sharoit yaratishdir. Bu borada maktab pedagogik va o`quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o`quvchining o`ziga xos xususiyatlariga qarab yondoshishni yo`lga qo`yadi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qitish metodikasi, ta'limda ota-onaning o'rni, mahalla.

**Kirish.**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'ziga biriktirilgan sinfga rahbar hisoblanadilar.

5-9-sinflarda sinf rahbarlari tajribali o'qituvchilar orasidan maktab ma'muriyati tomonidan tanlab olinib, tayinlanadi.

Bir o'qituvchiga faqat bitta sinf rahbarligi topshiriladi.

Sinf rahbari faoliyatini ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari nazorat etadi va muvofiqlashtiradi.

**II. Sinf rahbarininng vazifalari**

Sinf rahbarining asosiy vazifasi-o'quvchilarning ahil guruhlarini, aniq maqsadga yo'naltirilgan ishchan jamoani tashkil qila olish va ularni ta'lim-tarbiyali shaxslar, kelajagi buyuk davlatning haqiqiy egalari, komil insonlar etib voyaga yetkazishdir.

Sinf rahbarlari o'quvchilariga mehribon bo'lishi, ularning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat etishi, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondosha olishi lozim. Shu asosda ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarini uyg'otadi.

Sinf rahbari ishini o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va umumiy rivojlanish darajalarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

O'quvchilarni Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ruhida tarbiyalash yo'nalishida;

O'quvchilarni vatanga fidoiylik, davlat ramzlariga sadoqat, milliy g'oya ruhida tarbiyalash;

O'quvchilar ongiga o'zi tug'ilib ulg'aygan yurtiga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurtimizda bunyod etilayotgan inshootlar, ma'rifat maskanlari bilan tanishtirib borish;

Sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini

tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

O`quvchilarni o`zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an`analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

III. Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik

Barkamol avlodni tarbiyalashda «Mahalla, maktab va oila hamkorligi» konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o`tkazib borish;

O`quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo`yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam ta`minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, ota-onasiz bolalarning, homiylik va vasiylikka berilgan voyaga etmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

O`quvchilarning maktabgabelgilangan libosdake lishlarini nazoratga olish;

O`quvchilarning kundaliklarining yuritilishini nazorat va tahlil qilish, ularning o`quv qurollarini mavjudligi va saqlashlarini kuzatib borish;

O`quvchilarning turar joylari, uy sharoitlari bilan tanishish. Ularning sog`ligi, maishiy holatlarini o`rganish, yaxshilashga yordam berish. Uyda va maktabda madaniy dam olishlariga va mustaqil ishlashlariga sharoit yaratishga harakat qilish;

O`quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta`siriga tushib qolishlarining oldini olish, bu borada targ`ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

Sinf ota-onalar qo`mitasi bilan hamkorlikda umummaktab ota-onalar majlislari, konferensiyalar, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish. Sinfda o`tkazilgan tarbiyaviy ishlar yuzasidan pedagogic kengashlarda hisobot berish;

Darslarga muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og`ir o`quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik qilish;

O`quvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, kamtarlik, saxiylik va saxovatparvarlik, insonlarga yordam berishga tayyor turish, mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

IV. O`quvchilarning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish:

O`quvchilarni har tomonlama kamol toptirish, ularni qiziqish, imkoniyat va qobiliyatlariga qarab fan to`garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o`lkashunoslik yo`nalishidagi to`garaklarga, klublarga jalb etish;

Qobiliyatli va iste`dodli o`quvchilarni rag`batlantirish, iqtidorli bolalar ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko`maklashish;

O`quvchilar dunyoqarashini milliy madaniyatning asosi bo`lgan musiqa va qo`shiq, raqs, kino, adabiyot, xalq og`zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me`morchilik kabi xalq amaliy san`ati turlari vositasida kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga jalb etish;

O`quvchilarning yozgi sog`lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, shuningdek, kuzgi, qishki va bahorgi ta`villarini mazmunli o`tkazishlari uchun sharoit yaratish;

O`quvchilarning madaniy dam olishlari, sayohatlarini uyushtirish, yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash;

Maktabda o`tkaziladigan turli tadbirlar (bayramlar, ko`rik-tanlovlar, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar)da o`z sinfining faol ishtirokini ta`minlashdir.

V. O`quvchilarning o`zini o`zi boshqarish tizimini takomillashtirish:

Sinf jamoasi bilan birgalikda sinf faollarini saylash va sinf ishlarini rejalashtirish, tarbiyaviy soatlarni belgilash, o`quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish;

Sinfda o`quvchilarni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o`quvchilarni qo`llab-quvvatlash, sinf jamoasining ehtiyoj va qiziqishlarini chuqur va har tomonlama o`rganish;

Har bir o`quvchining o`zi uchun kun tartibini tuzishlarini tashkil etish, bu tartibning bajarilishini nazorat qilish;

O`quvchilar huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va maktablar tomonidan bajarilishi shart bo`lgan qonun hujjatlari haqida tushunchalar berib borish, qonunga hurmat hissini shakllantirish;

Bolalar va o`smirlar uchun chop etiladigan gazeta va jurnallarni targ`ib etish, obunani tashkil qilish, sinf devoriy gazetasining chiqarilishiga ko`maklashish.

#### VI. Maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorlik

Sinf o`quvchilarining maktab(ustavida belgilangan) ichki tartib-qoidalarini bajarishlarini ta`minlash;

Sinf jurnallarining va boshqa zaruriy hujjatlarning to`g`ri yuritilishini ta`minlash;

O`quvchilar o`zlashtirishini yuqoridarajaga ko`tarish, tartib-intizomnisqaqlash maqsadidasinfmajlislarinio`tkazibborish;

O`quvchilarni, o`qishda erishgan yutuqlari, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol qatnashganliklarini e`tiborga olib, taqdirlash haqida taklif berish;

Sog`lom turmush tarzi, oilaviy hayot gigienasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e`tibor berish;

O`quvchilarning o`zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish uchun fan o`qituvchilari bilan birgalikda yordam berish;

Pedagogik jamoa, psixologlar bilan hamkorlikda bitiruvchi sinf o`quvchilarini ta`limning keying bosqichiga yo`naltirish;

Maktab tibbiyot xodimlari, o`qituvchilari, psixolog, ota-onalar bilan hamkorlikda o`quvchilarning sog`ligini muhofaza qilish, ma`naviy, ma`rifiy, jismoniyva aqliy jihatdan rivojlanish muvofiqligini nazorat qilish;

Maktabda texnika xavfsizligi qoidalariga, sanitariya-gigienatartibiga, o`quvchilarni muhofaza qilish qoidalari talablariga rioya qilishni ta`minlash;

Shuningdek, o`z malakasini oshirib turish, o`z sohasi bo`yicha o`tkaziladigan turli miqyosdagi seminarlarda ishtirok etish kabi vazifalardan iborat.

#### VII. Sinf rahbari ish rejalari va ularni tashkil etish

Sinf rahbarining ishi reja asosida olib boriladi. Uning ish rejasi maktabning umumiy rejasi asosida direktorning ma`naviy-ma`rifiy tarbiya ishlari bo`yicha o`rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Sinf rahbarining yillik ishlarini rejalashtirish, sinfdan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish

va o`tkazishga yordam berish, ular samaradorligini oshirish, sinf rahbarlari ishlarini muvofiqlashtirish, ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida maktabda sinf rahbarlari uslubiy birlashmalari tashkil etiladi. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmalariga maktabdagi barcha sinf rahbarlari a'zo bo`ladilar.

### **Xulosa.**

Sinf rahbarlarida oylik, (o`quv yili bo`yicha) choraklik va yillik rejalari, umumxalq bayramlarini o`tkazish bo`yicha tadbirlar rejalari va ssenariylari, tarbiyaviy soatlar uchun namunaviy mashg`ulot ishlanmalari, o`quvchilarni qiziqishlari asosida ijodiy birlashmalar (to`garaklar, sport seksiyalari, klublar va boshqalar)ga jalb etish daftari, tarbiyasi og`ir (muntazam dars qoldiradigan) o`quvchilar hamda iqtidorli o`quvchilar bilan ishlash rejalari, ota-onalar majlisi bayonnomalari, ota-onalar bilan suhbat daftari, o`quvchilarning turar joylari, ularning ota-onalari haqida batafsil ma'lumotlar kabi ish hujjatlari yuritilishi lozim.

Shuningdek, sinf rahbari o`quvchilar shaxsiga oid ma'lumotlar (shaxsiy delo)ni shakllantiradi va saqlaydi. O`quv yili choraklari va yakuni bo`yicha hisobotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/uz/news/2020/08/11/maktabda-sinf-rahbari-va-manaviy-marifiy-ishlar-boyicha-direktor-orinbosari-yuritayotgan-hujjatlar-soni-qisqartirildi>
2. "Sinf rahbari faoliyatini tashkil etish to`g`risida Nizom"  
<http://idum.uz/uz/archives/14491>
3. Abdulaziz Ravshanov, & Muhammadali Shahriddinov. (2021). SIGNIFICANT CHANGES IN LEGAL EDUCATION THAT WILL SERVE THE DEVELOPMENT OF THE FIELD. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(11), 153-154. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1494> .
4. Abdulaziz , R. . (2022). IMPORTANT ASPECTS OF INTELLECTUAL PROPERTY EDUCATION AND LEGAL ADVOCACY. *Confrencea*, 1(1). Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/34> .